

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING AXBOROTLARNI QAYTA ISHLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH TEKNOLOGIYASI

**Абумалик Муталлиевич Дедаханов**

*Turan International University*

*Наманган, Узбекистан*

[abdumalikdedahanov216@gmail.com](mailto:abdumalikdedahanov216@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborotni qayta ishlash ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan yoritilgan. Axborotni qayta ishlashning mohiyati, uning bosqichlari va tarkibiy qismlari tahlil qilingan. Shuningdek, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltirish, asosiy mazmunni ajratish, umumlashtirish va ijodiy tatbiq etish jarayonlari ta'limiyl metod va texnologiyalar yordamida ochib berilgan. Maqolada matn ustida ishslash texnologiyasi, grafik organayzerlar, interfaol metodlar va refleksiya mashqlaridan foydalanishning samaradorligi asoslab berilgan.

**Kalit so'z:** boshlang'ich ta'lim, axborotni qayta ishslash, kognitiv ko'nikma, idrok, tahlil, umumlashtirish, ijodiy tafakkur, grafik organayzer, interfaol metod, refleksiya.

## ТЕХНОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ ОБРАБОТКИ ИНФОРМАЦИИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

**Аннотация:** В статье рассматривается технология формирования навыков обработки информации у учащихся начальной школы с научно-педагогической точки зрения. Анализируются сущность процесса обработки информации, его этапы и компоненты. Также раскрываются процессы ориентации учащихся на самостоятельное мышление, выделение основного содержания, обобщение и творческое применение с использованием образовательных методов и технологий. В статье обосновывается эффективность технологии работы с текстом, использования графических организеров, интерактивных методов и упражнений на рефлексию.

**Ключевые слова:** начальное образование, обработка информации, когнитивные навыки, восприятие, анализ, обобщение, творческое мышление, графический организер, интерактивный метод, рефлексия.

## TECHNOLOGY OF FORMING INFORMATION PROCESSING SKILLS IN PRIMARY GRADE STUDENTS

**Annotation:** The article discusses the technology of forming information processing skills in primary school students from a scientific and pedagogical point of view. The essence of information processing, its stages and components are analyzed. Also, the processes of directing students to independent thinking, separation of the main content, generalization and creative application are revealed using educational methods and technologies. The article



*substantiates the effectiveness of the technology of working on the text, the use of graphic organizers, interactive methods and reflection exercises.*

**Keywords:** primary education, information processing, cognitive skills, perception, analysis, generalization, creative thinking, graphic organizer, interactive method, reflection.

## KIRISH

Bugungi kunda dunyo ta'lismiz tizimida o'quvchilarning mustaqil bilim olishga tayyorligi, axborotni tahlil qilish va qayta ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi eng dolzarb yo'naliishlardan biri hisoblanadi. Xususan, boshlang'ich ta'lism bosqichida bolalarda axborotni qabul qilish, qayta ishlash va undan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish keyingi bosqichlarda muvaffaqiyatli ta'lism olish uchun poydevor yaratadi. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan Davlat ta'lism standartlari va "Boshlang'ich ta'lism sifatini oshirish"ga qaratilgan islohotlarda o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, kreativ va tanqidiy tafakkurini shakllantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu jarayonda axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish o'quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish va ularni zamonaviy bilim olish muhitiga moslashtirishning eng muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborotni qayta ishlash ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta'limda keng qo'llanilayotgan 4K modeli (Kreativlik, Kritiklik, Kommunikatsiya va Kooperatsiya) tamoyillari bilan uzviy bog'liqdir.

1. Kreativlik – o'quvchi o'qilgan axborotni ijodiy qayta ishlash, yangi g'oyalar ishlab chiqish va muqobil yechimlar topishda namoyon bo'ladi.

2. Kritik tafakkur – axborotni tahlil qilish, asosiy va ikkinchi darajali jihatlarni ajratish, ishonchlilagini tekshirish jarayonida shakllanadi.

3. Kommunikatsiya – o'quvchi o'rgangan axborotni tengdoshlari bilan muloqotda ifodalash, bahs-munozara va muhokamalarda o'z fikrini asoslash orqali rivojlanadi.

4. Kooperatsiya – axborotni qayta ishlash guruqli ishlarda, jamoaviy topshiriqlarni bajarishda hamkorlikda bilim almashish orqali mustahkamlanadi.

Demak, axborot bilan ishlash texnologiyasini boshlang'ich ta'limga tatbiq etish nafaqat o'quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantiradi, balki



ularning 21-asr ko'nikmalarini – 4K modelida belgilangan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

## METODOLOGIYA

Axborotni qabul qilish – bu tashqi muhitdan kelayotgan ma'lumotlarni sezgi organlari yordamida idrok etish va ularni ongda qayd etish jarayonidir. O'quvchilar uchun bu:

- tinglash orqali o'qituvchi nutqini yoki ovozli materiallarni qabul qilish;
- matnni o'qish orqali asosiy mazmunni tushunib olish;
- ko'rgazmali vositalar va tajribalarni kuzatish orqali bilim hosil qilishdir.

Psixolog olimlar (L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev, P.Ya.Galperin) ta'kidlaganidek, axborotni qabul qilish jarayonida o'quvchilarning diqqat, xotira va idrok faoliyatlari faol harakatga keladi.

Maqolada quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanildi:

1. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – o'quvchining individual qobiliyatlarini rivojlantirish va axborotni qayta ishslash jarayonida ularning shaxsiy tajribasidan foydalanish;
2. Kognitiv yondashuv – bilimlarni izlash, qabul qilish, qayta ishslash va qo'llash faoliyatlarini tizimli rivojlantirish;
3. Kompetensiyaviy yondashuv – o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini, xususan 4K (kreativlik, kritik tafakkur, kommunikatsiya va kooperatsiya) kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirish;
4. Faoliyatga asoslangan yondashuv – o'quvchilarning bilimlarni amaliy vaziyatlarda tatbiq etishi, muammoli topshiriqlarni bajarishi orqali axborotni qayta ishslash ko'nikmalarini mustahkamlash.


## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborotni qayta ishslash ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biridir. Bu ko'nikma, birinchi navbatda, o'quvchilarning idrok, xotira, tafakkur va nutqiy faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular o'qish, tinglash va kuzatish jarayonida o'zlashtirilgan ma'lumotni tahlil qilish, asosiy mazmunni ajratish va uni yangi sharoitda qo'llash qobiliyatini o'z ichiga oladi. O'quvchilar axborotni qayta ishslashda odatda quyidagi



bosqichlardan o'tadi: idrok etish, tahlil qilish, umumlashtirish va ijodiy qayta ishlash. Masalan, matnni o'qigach, o'quvchi avval voqeani anglaydi, so'ng asosiy g'oyani aniqlaydi, keyin uni qisqa reja yoki diagramma shaklida ifodalaydi va oxir-oqibat, mazmunni yangi vaziyatda qo'llashga urinadi. Shu tarzda, o'quvchi nafaqat matnni tushunadi, balki uni qayta yaratadi va o'z tajribasiga moslashtiradi.

Axborotni qayta ishlash ko'nikmalarini shakllantirish bosqichlari (1-rasmga qarang).



#### **1-rasm. Axborotni qayta ishslash ko'nikmalarini shakllantirish bosqichlari**

1. Idrok bosqichi – o'quvchi berilgan axborotni (matn, rasm, tajriba) diqqat bilan qabul qiladi.
2. Tahlil bosqichi – o'quvchi axborotni ajratib ko'radi, asosiy va ikkinchi darajali jihatlarni farqlaydi.
3. Umumlashtirish bosqichi – o'quvchi asosiy mazmunni qisqa va lo'nda shaklda qayta ifodalaydi.
4. Ijodiy qayta ishslash bosqichi – o'quvchi axborotni o'z fikri bilan boyitib, yangi vaziyatda qo'llaydi.

Axborotni qayta ishslash ko'nikmasini rivojlantirishda matn ustida ishlash, grafik organayzerlar (klaster, Venn diagrammasi, baliq skeleti), interfaol metodlar (aqliy hujum, savol-javob, muhokama), hamda refleksiya mashqlari muhim o'rinn tutadi. Masalan, ertak yoki maqol ustida ishlashda o'quvchilar asosiy fikrni topadi, syujet chizig'ini sxema shaklida ifodalaydi, so'ng ertakka boshqa yakun yozadi yoki voqeani boshqa qahramon nuqtayi nazaridan hikoya qiladi. Bunday faoliyat ularning tanqidiy fikrlashini, ijodiy yondashuvini va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu jarayonda o'qituvchining roli ham muhimdir. U o'quvchilarni savollar berish, muhokama tashkil etish, qo'llab-quvvatlash va yo'naltirish orqali faoliyatga jalb etadi. O'quvchilarni mustaqil ishlashga rag'batlantirish, vizual



vositalardan foydalanish, refleksiya jarayonini tashkil etish hamda natijalarni baholash o'qituvchining asosiy vazifalaridandir.

Shuningdek, axborotni qayta ishlash ko'nikmasi 4K modeli (kreativlik, kritik tafakkur, kommunikatsiya, kooperatsiya) bilan bevosita bog'liqdir. O'quvchi axborotni ijodiy qayta ishlash orqali kreativlikni, asosiy va ikkinchi darajali jihatlarni farqlash orqali kritik tafakkurni, mazmunni tengdoshlari bilan muhokama qilish orqali kommunikatsiyani va guruhli ishlarda hamkorlik qilish orqali kooperatsiyani rivojlantiradi.

Umuman olganda, bosqichma-bosqich yondashuv, interfaol metodlar, grafik organayzerlar o'quv jarayoniga integratsiya qilish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborotni qayta ishlash ko'nikmalarini samarali rivojlantirish mumkin. Bu esa o'quvchilarning kelgusida mustaqil bilim olish, ijodiy fikrlash va tanqidiy tahlil qilish kompetensiyalarini shakllantirish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

## XULOSA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborotni qayta ishlash ko'nikmalarini shakllantirish ta'lif jarayonining dolzarb vazifalaridan biridir. Bu jarayon o'quvchilarning idrok, xotira, tafakkur va nutqiy faoliyatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashishga va muammoli vaziyatlarda samarali qaror qabul qilishga tayyorlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki:

- axborotni qayta ishlash ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish (idrok, tahlil, umumlashtirish, ijodiy tatbiq) o'quvchilarning kognitiv rivojlanishini ta'minlaydi;
- interfaol metodlar, grafik organayzerlar va refleksiya mashqlari qo'llanilganda o'quvchilar asosiy mazmunni ajratish, mantiqiy xulosa chiqarish va mustaqil fikrini asoslashga o'rjanadi;
- xalq og'zaki ijodi namunalari orqali ishlash badiiy-estetik rivojlanish bilan bir qatorda kognitiv kompetensiyalarning ham shakllanishiga yordam beradi;



– 4K modeli asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar (kreativlik, kritik tafakkur, kommunikatsiya va kooperatsiya) zamonaviy ta'larning asosiy maqsadlariga mos keladi va o'quvchilarda universal o'quv faoliyatini rivojlantiradi.

Demak, bosqichma-bosqich amalga oshirish yondashuvi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va 4K modelining integratsiyasi boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning axborotni qayta ishlash ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga, natijada universal kognitiv faoliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston respublikasi vazirlar Mahkamasining 2017 -yil 6 -apreldagi "Umumiyl o'rta va o'rta maxsus , kasb-hunar ta'larning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187- sonli qarori.
2. Махмутазимова Ю. Бўлажак тарбиячилар ва тарбияланувчиликнинг коммуникатив компетенцияларини ахборот-коммуникация технологиялари ёрдамида ривожлантириш. Экономика и социум. №10 (89). 2021.
3. Toulmin, S. The Mozart of psychology. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes by L.S. Vygotsky, edited by Michael Cole, by Vera John-Steiner, by Sylvia Scribner, by Ellen Souberman, The Psychology of Art by L.S. Vygotsky, Soviet Developmental Psychology: An Anthology edited by Michael Cole. The New York Review of Books, 14, 51-57.
4. Ximmatov I.Q., Sulaymonov M.A. Zamonaviy raqamli axborot tizimlaridan talaba-yoshlarning foydalanishida ta'limtarbiyaning ahamiyati. <https://mppam2024.qarshidu.uz>
5. Hobbs R. Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom. 2011. Beverly Hills: Corwin/Sage. –R.255.